

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02  
RAQAMLI ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**VALIYEVA AZIZA ANVAR QIZI**

**MOYLI EKINLAR YETISHTIRUVCHI FERMER XO‘JALIKLARIDA  
MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH**

**08.00.11 – Marketing  
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on economics sciences**

**Valiyeva Aziza Anvar qizi**

Moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarida marketing  
tadqiqotlaridan foydalanish ..... 3

**Валиева Азиза Анвар кизи**

Использование маркетинговых исследований в фермерских хозяйствах,  
выращивающих масличные культуры..... 29

**Valieva Aziza Anvar kizi**

The Use of Marketing Research in Oilseed Farms..... 57

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02  
RAQAMLI ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**VALIYEVA AZIZA ANVAR QIZI**

**MOYLI EKLAR YETISHTIRUVCHI FERMER XO‘JALIKLARIDA  
MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH**

**08.00.11 – Marketing  
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**



**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1821 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Akramov Toxir Abdurahmonovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Menglikulov Baxtiyor Yusupovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 03 10 soat 19.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1742 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 11 09 kuni tarqatildi.  
(2025 yil « 10 » 09 dagi 46 -raqamli ressi bayonnomasi).



**G.K. Abdurahmonova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**O. Dj. Djurabaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, i.f.d., dotsenti

**Sh.A. Allayarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo mamlakatlarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash sharoitida asosiy strategik masalalar yechimini hal qilishda yog'-moy sanoati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin ortib borishi, bir tomondan, mavjud resurslardan samarali foydalanish, ikkinchi tomondan esa, ishlab chiqarishning samaradorligi va raqobatbardoshligini innovasion texnologiyalar asosida ta'minlash sharoitida kechmoqda. Zero, bugungi globallashtirish sharoitida «...dunyo bo'yicha oziq-ovqat sanoati mahsulotlari miqdori yiliga 4 trln. AQSh dollarini tashkil etmoqda. So'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi sababli oziq-ovqat sanoati yuqori darajada rivojlanmoqda. Oziq-ovqat sanoatida AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlari ustunlik qilmoqda»<sup>1</sup>. Oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirishda uning muhim xomashyo negizi hisoblangan moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahonda yog'-moy sanoatini rivojlantirish va unda marketing tadqiqotlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahsulot bozori va iste'mol talabining dinamikasini prognozlash usullarini takomillashtirish; ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini ilmiy asoslash; raqamli marketing texnologiyalarini qo'llash orqali iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash va segmentlash metodikalarini ishlab chiqish; moyli ekinlarning brendlash va bozordagi raqobatbardoshligini oshirish strategiyalarini ilmiy jihatdan takomillashtirish; shuningdek, marketing tadqiqotlari natijalari asosida moyli ekinlar mahsulotlarining xalqaro bozorlarga chiqish istiqbollari baholash va ushbu jarayonlarni modellashtirishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini yaratish moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda bozorni turli xil tovarlar, jumladan yog'-moy mahsulotlari bilan to'ldirish, iste'molchilarning sifatli tovar xarid qilishiga keng imkoniyatlar yaratishda marketing tadqiqotlaridan foydalanish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, pirovardida aholining farovon turmush sharoitini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Ayni paytda global bozorlardagi narxlarning keskin tebranishini hisobga olib, mutasaddi idoralar va hududlar rahbarlariga ichki bozorda narxlar barqarorligini saqlash, eng avvalo, aholini yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish»<sup>2</sup> vazifalari belgilab berildi. Shu boisdan, iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda aholining o'simlik moyi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini barqaror ta'minlash, ichki iste'mol bozorini

<sup>1</sup> <https://www.oborudunion.ru/largest/pischevoe-oborudovanie>

<sup>2</sup> <https://review.uz/oz/post/opredelen-zadachi-po-narashivaniyu-investitsiyi-eksporta-nassheniyu-prodovolstvennogo-rnka>

mahalliy ishlab chiqarilgan yog‘-moy mahsulotlari bilan to‘ldirish, iste’molchilarning sifatli o‘simlik moyi mahsulotlariga bo‘lgan talablarini to‘laroq qondirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 fevraldagi PF-22-son «Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari, 2023-yil 7-iyuldagi PQ-216-son «Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021 yil 22 dekabrda PQ-58-son «Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 9 sentabrdagi PQ-4821-son «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 14 iyuldagi 438-son «Respublikada moyli ekinlar yetishtirishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy-marifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Marketing tadqiqotlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlari juda ko‘plab iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Xorijlik iqtisodchi olimlardan F.Kotler, J.Armstrong, Kevin Leyn Keller, Neresh K.Malxotra, D.Krevens, J.Landveri, J.Levi, D.Lindon, Aaker, D.Rosa, O.L.Rua, E.E.Wonah, C.U.Sonye, R.Abdul Majeed, K.V.Sriram, S.A.Kharma, M.Porter, Ikonen, Iina-Maija Hannele, Yating Tian, X.Yu, B.Hopping, E.L.Ratliff <sup>3</sup>, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari

---

<sup>3</sup> Котлер Ф. Маркетинг 5.0. Технологии следующего поколения / Филип Котлер, Сетиаван Айвен, Картаджайя Хермаван ; [перевод с английского А. Горман]. - Москва: Эксмо, 2023. -272 с.; Kotler P., Armstrong G., Marc Oliver Opresnik. Principles of marketing. Pearson Education Limited 2018; Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing management. - 14th ed. publishing as Prentice Hall, New Jersey, 2012. – 828 p.; Нэреш К.Малхотра. Маркетинговые исследования: практическое руководство. –М.: Вильямс, 2016. -1156 с.; Дэвид Кревенс. Стратегический маркетинг. Учебное пособие. –М.: Вильямс, 2010. -742 с.; Ландвери Ж., Леви Ж., Линдон Д. Меркатор. Теория и практика маркетинга. /Пер с франц., 2 т. –М.: МЦФЭР, 2006. -1176 с., Аакер Д.А.Стратегия управления портфелем брендов: [пер. с англ.] / Дэвид А Аакер. - М.: Эксмо, 2009. – 318 с.; Rosa, D., Rua, O.L. Relationship marketing and intangible resources: The mediating effect of loyalty. Review of Marketing Science. 2020 18(1), с. 117-143.; Wonah, E.E., Sonye, C.U. Footwear merchandizing skills needed by graduates of colleges of education for self-reliance in delta state. 2020 Journal of Home Economics Research. 27(1), с. 79-88; Abdul Majeed, R., Sriram, K.V. Determining the best advertising medium for a footwear company: A case study.

L.N.Kovalik, A.P.Karasev, A.V.Kulikova, D.Ye.Klimanov, A.V.Korotkov, N.B.Safronova, S.V.Polevoda, N.P.Shaligina, E.Tyan, L.V.Krilova, K.S.Iorina<sup>4</sup> va boshqa iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O'zbekistonda marketing tadqiqotlarining muhim masalalari A.Sh.Bekmurodov, M.A.Ikramov, L.T.Abduxalilova, Sh.DJ.Ergashxodjaeva, A.N.Samadov, M.A.Yusupov, I.Ivatov, A.Soliev, L.T.Abduxalilova, B.N.Mamaev, T.A.Mamadjanova, F.T.Kasimova, Sh.X.Xamdamov, X.Xakimov, A.A.Abdug'aniyev, B.B.Xudoyberdiyev, U.Saidov, M.R.Bozorov, S.Sh.Qo'chqorov, Sh.Mirzayev, N.N.Rasulov, M.M.Azlarova<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

---

2019. Indian Journal of Marketing. 49(5), c. 21-32; Verma, P., Sharma, A.K. Assortment satisfaction: The tale of online footwear sales. 2018 Technology in Society. 54, c. 57-65.; Портер, М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер; Пер. с англ. – 4-е изд. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2013. – 463 с; Ikonen, Iina-Maija Hannele (2021) — Influencing Consumer Choice for Healthy Foods at the Point of Purchase: The role of marketing communication and food pricing strategies. PhD, Vrije Universiteit Amsterdam.; Yating Tian (2024) - Integrating sustainability into food marketing: A design-based extension of the food well-being paradigm. PhD, University of Twente.; X. Yu (2021) — Marketing Strategies and Consumers' Food Decision-making.; B.Hopping (2016) - Local Food Perceptions and Shopping Behavior among frequent shoppers of rural grocery stores.; E.L.Ratliff (2021) — Consumer Preferences for Value Added Products. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga qo'shimcha qiymat (value added) berilishi va iste'molchi afzalliklari tahlili.

<sup>4</sup> Божук С. Г. Маркетинговые исследования : учебник для вузов / С. Г. Божук. - 2-е изд., испр. и доп. - Москва: Издательство Юрайт, 2025. -304 с.; Карасев А.П. Маркетинговые исследования и ситуационный анализ: учебник и практикум для прикладного бакалавриата / А. П. Карасев. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2017. - 315 с.; Куликова А.В. Маркетинговые исследования. Составитель: Учебно-методическое пособие. – Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет им. Н.И. Лобачевского, 2017. – 70 с.; Климанов Д.Е. Маркетинговый подход к анализу бизнес-моделей. 2017; Коротков, А.В. Маркетинговые исследования: учеб. пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – 303 с; Сафронова, Н.Б. Маркетинговые исследования. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2017. – 296 с.; Полевое С.В. Развитие методики маркетингового анализа коммерческих организаций. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. Ростов-на-Дону – 2016.; Шалыгина Н.П. Развитие маркетинговых исследований в организациях потребительской кооперации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. 08.00.05. Белгород-2006.; Тянь Е. Формирование интегрированного маркетингового предложения на рынке продуктов питания: дис. ... канд. экон. наук. – Кубанский гос. ун-т, Краснодар, 2014. – 180 с.; Крылова Л. В. Агромаркетинг на этапе адаптации к изменяющимся рыночным условиям: дис. ... канд. экон. наук (08.00.05 – маркетинг). – Донецкий нац. ун-т экономики и торговли им. М. Туган-Барановского, 2021. – 180 с.; Иорина К.С. Прогнозирование поведения потребителей на рынке продуктов питания (эконометрическое моделирование на данных опросов): выпускная квалификационная работа/дисс. материалы. – СФУ, 2023.

<sup>5</sup> Бекмурадов А.Ш. ва бошқалар. Стратегик маркетинг. –Т.: ТДИУ, 2010. -161 б.; Икромов М.А., Абдухалилова Л.Т. Маркетинг тадқиқотларида статистик таҳлил. –Т.: Иқтисодиёт, 2017. – 345 б.; Эргашходжаева Ш.Ж., Қосимова М.С., Юсупов М.А. Маркетинг: дарслик. – Т.: Иқтисодиёт, 2018. – 232 б.; Эргашходжаева Ш.Дж., Самадов А.Н., Шарипов И.Б. Маркетинг: дарслик. –Т.: Иқтисодиёт, 2013. -346 б.; Касимова Ф.Т. Тенденции и перспективы развития цифрового маркетинга в малом бизнесе на примере кондитерских изделий. Автореферат диссертации на соискание. ученой степени доктора (DSc) по экономическим наукам. –Т.: ТГЭУ, 2022; Abdug'aniyev A.A. Oziq-ovqat sanoatida marketing tadqiqotlarini rivojlantirish yo'nalishlari: PhD dissertatsiya. – Т.: TDIU, 2018. – 145 b.; Xudoyberdiyev B.B. O'zbekiston oziq-ovqat bozorida marketing strategiyalarini takomillashtirish: PhD dissertatsiya. – Т.: TDIU, 2019. – 160 b.; Saidov U. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish: DSc dissertatsiya. – Samarqand: SamDU, 2020. – 245 b.; Bozorov M.R. Oziq-ovqat bozorida iste'molchilar xulq-atvori va marketing tadqiqotlari: PhD dissertatsiya. – Т.: TMI, 2017. – 180 b.; Qo'chqorov S.Sh. Oziq-ovqat tarmog'ida raqobatbardoshlikni ta'minlashda marketing tahlilining o'rni: DSc dissertatsiya. – Т.: TDIU, 2021. – 210 b.; Mirzayev Sh. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari marketing tadqiqotlari tizimini rivojlantirish: PhD dissertatsiya. – Andijon: AndMI, 2019. – 165 b.; Rasulov N.N. Agrosanoat majmuida marketing tadqiqotlari tizimini rivojlantirish: DSc dissertatsiya. – Т.: TDIU, 2018. – 225 b.; Yo'ldoshev A., Xolmurodov O. Marketing tadqiqotlari. – Т.: TDIU nashriyoti, 2017. – 240 b. (oziq-ovqat marketingi bo'yicha nazariy asos sifatida qo'llanilgan); Azlarova M.M. Iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan tuzilishda marketing strategiyalaridan foydalaniшни takomillashtirish (kandolat mahsulotlari misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy derajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati – Т.: TDIU, 2023.



**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

marketing tadqiqotlarining tashkiliy shakllari, turlari va ulardan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish;

moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning uslubiy jihatlarini tadqiq qilish;

moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib berish;

respublikamizda moyli ekinlar yetishtirish dinamikasi va hozirgi holatini tahlil qilish va xulosalar shakllantirish;

moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning amaldagi holatini o'rganish;

moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

respublikada o'simlik moyi mahsulotlari qiymatining 2030 yilgacha prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Toshkent viloyatida moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyati tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlarini samarali o'tkazish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy tafakkur, ilmiy abstraksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, monografik kuzatish, statistik guruhlash, prognozlash, SWOT tahlili, PEST tahlili va ekonometrik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "marketing tadqiqotlari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bozor ishtirokchilarining (ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, vositachi) talab va ehtiyojlarini aniqlash, mahsulotlar va xizmatlarning raqobatbardoshligi, bozor sig'imi va tendensiyalarini baholash, marketing qarorlari va strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ishonchli, obyektiv hamda tizimli ravishda yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan nazariy-amaliy tadbirlar majmuasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini oshirishda talab tendensiyasi ( $TT = 0,25$ ), bozordagi raqobatning holati va xususiyatlari ( $BR = 0,22$ ), asosiy raqobatchilar va ularning faoliyat yo'nalishlari ( $AR = 0,19$ ), korxonaning

boshqaruv resurslari va imkoniyatlari ( $BRI = 0,34$ ) omillarining maqbul me'yoriy chegaralari asoslangan;

moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari bilan iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kompleks tahlil qilishda marketing tadqiqot jarayonining samaradorligi ishlab chiqarish hajmi ( $ICHH = 12\%$ ) hamda iste'molchilarning qoniqish darajasi ( $IQD = 18\%$ )ning o'sishi orqali ifodalanuvchi imkoniyatini kengaytirish hamda jarayonlarning to'liq, mantiqiy va bosqichma-bosqich tavsifini ta'minlash asoslangan;

o'simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va savdosi, ishlab chiqaruvchi korxonalar va ularda band bo'lgan xodimlar soni, o'simlik moyi sanoatiga ajratilgan investitsiyalar omillarining ta'sirini hisobga olgan holda O'zbekistonda o'simlik moyi mahsulotlari qiymatining 2030 yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari uchun ijtimoiy va axloqiy marketing tamoyillari shakllantirilgan, ularning amalga oshirilishi jamiyat va fermer xo'jaligi manfaatlarini maqbul uyg'unlashtirish imkonini bergan;

moyli ekinlarni yetishtirish uchun marketing tadqiqotlarini o'tkazish bosqichlari ishlab chiqilgan hamda marketing tadqiqotlari dasturi va uni amalga oshirish ketma-ketligi tavsiya etilgan;

moyli ekinlarni yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlarining so'rov va SWOT tahlili usullarini qo'llashning maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy asoslangan va undan foydalanish tavsiya etilgan;

moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari yalpi mahsulot hajmini oshirishda dala tadqiqotlarini qo'llashning maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslangan va undan foydalanish tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi, marketing tadqiqotlaridan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflarning amaliyotga joriy etilganligi va natijalarning fermer xo'jaliklari hamda O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tahlil nuqtai nazaridan kelib chiqib marketing tadqiqotlari tushunchasiga ta'rif berishda, moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini oshirishda talab tendensiyasi, bozordagi raqobatning holati va xususiyatlari, asosiy raqobatchilar va ularning faoliyat yo'nalishlari, kompaniyaning boshqaruv resurslari va imkoniyatlari omillarining maqbul me'yoriy chegaralarini asoslashda, moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari bilan iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kompleks tahlil qilishda marketing tadqiqot jarayonining samaradorligi ishlab chiqarish hajmi hamda iste'molchilarning qoniqish darajasining o'sishi orqali ifodalanuvchi imkoniyatini kengaytirish hamda

jarayonlarning to'liq, mantiqiy va bosqichma-bosqich tavsifini ta'minlashda marketing tadqiqotlaridan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari marketing tamoyillarini shakllantirishda, moyli ekinlarni yetishtirish uchun marketing tadqiqotlarini o'tkazish bosqichlarini ishlab chiqishda, moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlarining so'rov va SWOT tahlili usullarini qo'llashda, fermer xo'jaliklari yalpi mahsulot hajmini oshirishda dala tadqiqotlarini qo'llashning maqsadga muvofiqligini asoslashda hamda istiqbolli marketing dasturini shakllantirish va yo'l xaritalarini belgilashda foydalaniladi. Marketing tadqiqotlarini foydalanish bo'yicha tavsiyalardan moyli ekinlarni yetishtirish bo'yicha qabul qilinayotgan qaror va maqsadli dasturlarni belgilashda foydalaniladi. «Marketing asoslari» va «Marketing tadqiqotlari» fanlarini o'qitish jarayonida ma'ruza va keys-stadilar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "marketing tadqiqotlari" tushunchasining iqtisodiy mazmunini bozor ishtirokchilarining (ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, vositachi) talab va ehtiyojlarini aniqlash, mahsulotlar va xizmatlarning raqobatbardoshligi, bozor sig'imi va tendensiyalarini baholash, marketing qarorlari va strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ishonchli, ob'ektiv hamda tizimli ravishda yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan nazariy-amaliy tadbirlar majmuasi nuqtai nazaridan takomillashtirish bo'yicha nazariy va uslubiy ishlanmalar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan «Marketing va marketing menejmenti» nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 28-avgustdagi 272-son buyrug'iga tasdiqlangan 272-17-sonli guvohnoma). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida, «Marketing va marketing menejmenti» fanini o'qitish jarayonida tahlil nuqtai nazaridan kelib chiqib shakllantirilgan marketing tadqiqotlari tushunchasidan foydalanish imkoni yaratilgan;

moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini oshirishda talab tendensiyasi ( $TT = 0,25$ ), bozordagi raqobatning holati va xususiyatlari ( $BR = 0,22$ ), asosiy raqobatchilar va ularning faoliyat yo'nalishlari ( $AR = 0,19$ ), kompaniyaning boshqaruv resurslari va imkoniyatlari ( $BRI = 0,34$ ) omillarining maqbul me'yoriy chegaralaridan foydalanish taklifi Toshkent viloyati Bekobod tumanidagi "Boybo'ta" hamda "Olovuddin omad" fermer xo'jaliklari, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tizimidagi moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatiga joriy etilgan (Toshkent viloyati Bekobod tumani "Boybo'ta" fermer xo'jaligining 2024 yil 30 oktabrdagi 2-son, "Olovuddin omad" fermer xo'jaligining 2024 yil 30 oktabrdagi 3-son, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024 yil 23 dekabr 24/92-son ma'lumotnomalari). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi, moyli

ekinlar mahsulotlari yetishtirishning doimiy monitoringini o'tkazish maqsadida bozorda marketing tadqiqotlarini tashkil etishning umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan usullarini qo'llash hamda iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning panel tadqiqotlarini tanlash va undan foydalanish imkonini bergan;

moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari bilan iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kompleks tahlil qilishda marketing tadqiqot jarayonining samaradorligi ishlab chiqarish hajmi ( $ICHH = 12\%$ ) hamda iste'molchilar qoniqish darajasi ( $IQD = 18\%$ )ning o'sishi orqali ifodalanuvchi imkoniyatini kengaytirish hamda jarayonlarning to'liq, mantiqiy va bosqichma-bosqich tavsifini ta'minlash taklifi Toshkent viloyati Bekobod tumanidagi "Boybo'ta" hamda "Olovuddin omad" fermer xo'jaliklari, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tizimidagi moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024 yil 23 dekabr 24/92-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi, moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari bilan iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kompleks tahlil qilishda marketing tadqiqot jarayonining samaradorligi ishlab chiqarish hajmi hamda iste'molchilar qoniqish darajasining o'sishi orqali ifodalanuvchi imkoniyatini kengaytirish va jarayonlarning to'liq, mantiqiy va bosqichma-bosqich tavsifini ta'minlash imkonini bergan;

o'simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va savdosi, ishlab chiqaruvchi korxonalar va ularda band bo'lgan xodimlar soni, o'simlik moyi sanoatiga ajratilgan investitsiyalar omillarining ta'sirini hisobga olgan holda O'zbekistonda o'simlik moyi mahsulotlari qiymatining 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024 yil 23 dekabr 24/92-son ma'lumotnomalari). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida, respublikada o'simlik moyi mahsulotlari qiymatining 2030 yilgacha prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 124 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekti, predmeti va usullariga tavsif berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida marketing tadqiqotlari va ulardan foydalanishning nazariy asoslari, marketing tadqiqotlaridan foydalanishning xususiyatlari va tamoyillari, moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning uslubiy jihatlari yoritilgan.

Ma'lumki, biznesda bozorni o'rganishda, ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmat turini tanlash bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda marketing tadqiqotlarini o'tkazish muhim va zarur hisoblanadi. Ilmiy manbalar va o'quv-uslubiy adabiyotlarda “marketing tadqiqotlari” tushunchasiga iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari tomonidan mazmunan bir-biriga yaqin turli xil ta'riflar va yondashuvlar keltirilgan. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlar Naresh K.Malhotra, Imad B.Balbaakilar tomonidan marketing tadqiqotlari atamasiga quyidagi ta'rif berilgan: “marketing tadqiqotlari (ingl. marketing research) deb axborot to'plash, uni izohlash, marketing xizmatlari va firma rahbariyati uchun ularning buyurtmalari bo'yicha bajariladigan baholash va bashorat hisob-kitoblariga atiladi”<sup>6</sup>.

Xorijlik iqtisodchi olim A.V.Kataev tomonidan marketing tadqiqotlari tushunchasiga quyidagi ta'rif berilgan: “marketing tadqiqotlari - bu marketingning axborot va tahliliy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan har qanday tadqiqot faoliyati”<sup>7</sup>.

Xorijlik soha mutaxassislari O.Kalieva, O.Mixaylova va V.Kovalevskiylar marketing tadqiqotlari tushunchasiga quyidagi yondashuvni keltirib o'tganlar: “Marketing tadqiqotlari - bu biznes tadqiqotlari shakli va amaliy sotsiologiyaning bo'limi bo'lib, u bozor tomonidan belgilab qo'yilgan iqtisodiyotdagi iste'molchilar, raqobatchilar va bozorlarning xatti-harakatlari, istaklari va afzalliklarini, shuningdek, korxonaning bozordagi o'rnini tushunishga qaratilgan”<sup>8</sup>.

Iqtisodchi olimlarning marketing tadqiqotlari tushunchasiga bergan ta'rif va talqinlarini e'tiborga molikligini e'tirof etgan holda tahlil nuqtai nazaridan kelib chiqib quyidagi mualliflik yondashuvi shakllantirildi: “Marketing tadqiqotlari - bu

<sup>6</sup> Naresh K. Malhotra, Imad B. Balbaaki. Marketing Research. 6<sup>th</sup> Edition. Published by Pearson Education LTD. © 2013.

<sup>7</sup> Катаев А.В. Маркетинговые исследования. Модуль «Теория маркетинговых исследований»: Харьковский торгово-экономический институт Киевского национального торгово-экономического университета. – Х.: ХТЭИ КНТУУ, 2014. – 46 с.

<sup>8</sup> О.Калиева, О.Михайлова, В.Ковалевский. Маркетинговые исследования. - Litres, 2022-05-15. – 258 с. -ISBN 978-5-04-004673-7.

bozor kon'yunkturasi: narxlar, raqobatchilar, foydalanuvchilar va boshqalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tasniflash va tahlil qilish. Marketing tadqiqotlari - bu bozor, mahsulot haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va sharhlash uchun vositalar to'plamidir". Mazkur mualliflik yondashuvining boshqa ta'rif va talqinlardan farqli jihati shundaki, "marketing tadqiqotlari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bozor ishtirokchilarining (ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, vositachi) talab va ehtiyojlarini aniqlash, mahsulotlar va xizmatlarning raqobatbardoshligi, bozor sig'imi va tendensiyalarini baholash, marketing qarorlari va strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ishonchli, obyektiv hamda tizimli ravishda yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan nazariy-amaliy tadbirlar majmuasi nuqtai nazaridan yondashilganligi va takomillashtirilganligidir.

Marketing tadqiqotlarining tashkiliy shakli bu marketing tadqiqotlari jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va munosabatlar usuli hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarining tashkiliy shakllarining tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi (1-jadval).

**1-jadval**

### Marketing tadqiqotlarining tashkiliy shakllari<sup>9</sup>

Marketing tadqiqotlarining tashkiliy shakllari			
1. Buyurtmachi tomonidan mustaqil tadqiqot o'tkazish		2. Uchinchi tomon tashkilotlarining tadqiqotlar o'tkazishi	
1.1. Statsionar shakllar:	1.2. Vaqtinchalik shakllar:	2.1. Muntazam ravishda:	2.2. Noto'g'ri (epizodik) asosda - mijozning iltimosiga binoan uchinchi tomon tadqiqot tashkilotlari tomonidan alohida holatlarga qarab marketing tadqiqotlarini o'tkazish (tadqiqotchilarga so'rovlarda hech qanday naqsh kuzatilishi mumkin emas)
- marketing bo'limlari, ularda marketing tadqiqotlarini o'tkazish xodimlarning funksional majburiyatlaridan biri hisoblanadi;	- boshqaruv darajasi bo'yicha tasniflangan xodimlar uyushmalari: marketing kengashlari - eng yuqori darajada; muammoli guruhlar - eng yuqori yoki o'rtacha darajada; vaqtinchalik maslahat guruhlari - o'rta boshqaruv darajasida	- autorsing - tashqi pudratchilar tomonidan korxonaning ichki statsionar tadqiqot funksiyalarini bajarish; uchinchi shaxslar tomonidan doimiy marketing tadqiqotlari; autorsing - tashkilotning muayyan biznes jarayonlari yoki ishlab chiqarish funksiyalarini tegishli sohaga ixtisoslashgan boshqa korxonaga o'tkazish	-
- marketing tadqiqotlari bo'limlari, ularda marketing tadqiqotlarini o'tkazish xodimlarning maqsadli vazifasi hisoblanadi.	- venchur guruhlar - korxonaning funksional bo'linmalaridan mustaqil bo'lgan yuqori malakali (tashqi yoki ichki) mutaxassislardan iborat biznes jarayonini tashkil etish shakli. Guruhni yaratishdan maqsad tadqiqot parametrlarining fundamental yangiligi tufayli o'z maqsadlariga erishishda yuqori darajadagi xavfga ega bo'lgan ilmiy loyihalarni ishlab chiqishdan iborat	- qo'llab-quvvatlash - korxonaning iqtisodiy faoliyatini axborot marketingini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadqiqot tashkiloti bilan shartnoma (odatda uzoq muddatli) tuzish	-
Marketing tadqiqotlarining muayyan tashkiliy shaklini tanlash tadqiqotning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur vaqtinchalik, insoniy, moliyaviy resurslarning mavjudligi (yo'qligi) bilan belgilanadi			

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishning natijalarni asoslash tizimi bo'yicha turlariga quyidagilar kiradi (2-jadval):

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

## 2-jadval

### Marketing tadqiqotlarini o'tkazishning natijalarni asoslash tizimi bo'yicha turlari<sup>10</sup>

T/r	Tadqiqot usullari	Mazmuni	Adekvat tadqiqot usullari (ma'lumotlar yig'ish)
1	Miqdoriy tadqiqot	o'rganilayotgan ob'ektlarning tashqi, rasmiy munosabatlarining raqamli bahosini, o'lchovini olish maqsadida olib boriladigan marketing tadqiqotlari	ommaviy so'rov, kuzatish, kontent tahlili
2.	Sifat tadqiqoti	o'rganilayotgan ob'ektlarning paydo bo'lishi va faoliyatining mohiyatini tushunish, fundamental xarakteristikalarini va asosiy qonuniyatlarini aniqlash maqsadida olib boriladigan marketing tadqiqotlari	kuzatish (kuzatish), fokus-guruh, chuqur suhbat, fiziologik usul, proeksiya usuli, an'anaviy hujjatlar tahlili

Shunday qilib, boshqaruv qarorini qabul qilishda marketing tadqiqotlari tashkiliy shakllari, turlarini hamda xalqaro va milliy normativ hujjatlar va ularning mazmunini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazish ketma-ket quyidagi uch qismda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi: boshlang'ich qism (muammoni shakllantirish, marketing brifingini tuzish, tadqiqot dasturini ishlab chiqish); asosiy qism (tegishli usullardan foydalangan holda ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish); yakuniy qism (hisobot tayyorlash, ta'sirni baholash). Ilmiy va o'quv adabiyotlaridagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida marketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun quyidagi ketma-ketlik tavsiya etiladi (3-jadval).

## 3-jadval

### Marketing tadqiqotlarini o'tkazish bosqichlari<sup>11</sup>

Bosqichlar	Yo'nalishlar
1-bosqich	Tadqiqotni o'tkazishning maqsadga muvofiqligini asoslash
2-bosqich	Tadqiqot muammosining tavsifi va bayoni (tadqiqot mavzusining ta'rifi)
3-bosqich	Tadqiqotning aniq maqsadi va vazifalarini aniqlash
<b>4-bosqich</b>	<b>Ilmiy-tadqiqot dasturini uning belgilovchi omillari asosida shakllantirish</b>
5-bosqich	Muayyan muammo doirasida ikkilamchi ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish va tahlil qilish
<b>6-bosqich</b>	<b>Birlamchi ma'lumotlarni olishga qaratilgan tadqiqot dasturining bo'limlarini shakllantirish</b>
7-bosqich	Tadqiqot o'tkazish va birlamchi ma'lumotlarni yig'ish
8-bosqich	Olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish
9-bosqich	Natijalarni qayta ishlash, xulosalar va natijalarni shakllantirish
10-bosqich	Tadqiqotning yakuniy natijalari bilan hisobot tayyorlash va taqdim etish
11-bosqich	Tadqiqot natijalaridan foydalanish
<b>12-bosqich</b>	<b>O'tkazilgan tadqiqotlar asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarasini baholash</b>

Marketing tadqiqotining o'nlab usullari mavjud. Bular: so'rovlar, fokus guruhlari, CustDev, chuqur intervyular, Jobs to be done, sirli xaridor, R&D (Research and Development), SWOT tahlili, PEST tahlili, Porterning beshta kuchi,

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>11</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Boston Consulting Group (BCG) matritsasi, CJM (Customer journey map). Korxonalar ularni maqsadlari va mavjud resurslariga qarab tanlaydilar. Marketologlar turli tadqiqot maqsadlarida ularni to'g'ri tanlash uchun asosiy usullar bilan tanish bo'lishi kerak.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning hozirgi holati tahlili”** deb nomlanib, ushbu bobda respublikamizda moyli ekinlar yetishtirish dinamikasi va hozirgi holati tahlil qilingan, moyli ekinlar donini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikada foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan, moyli ekinlar mahsulotlariga bo'lgan talabning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda respublikamiz aholisini toza, sifatli o'simlik moyiga bo'lgan yillik ehtiyojini qondirish maqsadida, qishloq xo'jalik korxona (fermer, dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jalik) larida moyli ekinlarni yetishtirish va uni qayta ishlashni tashkil etish juda muhimdir.

Toshkent viloyati bo'yicha moyli ekinlar donini yetishtirish uchun ajratilgan eng katta yer maydonlari asosan Ohangaron, O'rtachirchiq, Bo'stonliq, Yuqorichirchiq va Pskent tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, ushbu tumanlarda istiqbolda moyli ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan hududlarni rivojlantirish mumkin. Toshkent viloyatida keyingi yillarda moyli ekinlar maydoni sezilarli darajada kamaygan. Jumladan, barcha toifadagi xo'jaliklarda moyli ekinlarning maydoni 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 45 % ga kamaygan bo'lib, shundan soyaning maydoni 5,7 martaga va kunjutning maydoni 7,8 martaga kamaygan. Kungaboqar, maxsar va yeryong'oq ekilgan maydonlar ham o'rganilayotgan davrda sezilarli darajada kamaygan (4-jadval).

O'tgan yillar davomida Toshkent viloyati bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklar moyli ekinlar maydoni kamaygani boisdan, ulardan olinadigan yalpi hosil miqdori ham sezilarli darajada kamaygan (kungaboqardan tashqari). Masalan, moyli ekinlardan olinadigan yalpi hosil miqdori 2024-yilda 2021-yilga nisbatan qariyb 4454,16 tonnaga yoki 45,7 foizga kamaygan bo'lsa, soyaning yalpi hosili 3398,21 tonnaga yoki 62,1 foizga, yeryong'oq yalpi hosili 1109,35 tonnaga yoki 45,5 foizga kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Toshkent viloyatida moyli ekinlar hosildorligining oshganligini ko'rish mumkin (yeryong'oqdan tashqari). 2024-yilda 2021-yilga nisbatan kungaboqarning o'rtacha hosildorligi 51,6 %ga, maxsarning o'rtacha hosildorligi 31,8 %ga, soyaning o'rtacha hosildorligi 17,4 %ga, kunjutning o'rtacha hosildorligi 4 martaga oshgan. Buni ijobiy baholash mumkin.

Marketing tadqiqotlari orqali fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish hajmlarini rejalashtirish, iste'molchilar ehtiyojini aniqlash, bozor segmentlarini baholash va raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lalilar. Bu esa ularga strategik qarorlar qabul qilishda xolis axborot bazasini shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulotni bozorga yo'naltirishda optimal variantlarni tanlashga yordam beradi. Shu bilan birga, talab tendensiyasi, bozordagi raqobat muhiti, asosiy raqobatchilarning strategiyalari hamda xo'jalikning boshqaruv



resurslari va imkoniyatlari marketing tadqiqotlarining samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

#### 4-jadval

#### Toshkent viloyati bo‘yicha barcha toifadagi xo‘jaliklar moyli ekinlar maydoni, yalpi hosili, hosildorligining 2021-2024 yillar bo‘yicha dinamikasi<sup>12</sup>

Ekin turlari	2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil		2024 yilda 2021 yilga nisbatan o'sishi (kamayishi) %
	maydoni	Jamiga nisbatan % da	maydoni	Jamiga nisbatan % da	maydoni	Jamiga nisbatan % da	maydoni	Jamiga nisbatan % da	
Maydoni, ga									
Kungaboqar	1021,0	22,5	1064,5	23,7	803,6	24,7	883,7	45,9	86,6
Maxsar	456,0	10,0	332,1	7,4	495,8	15,2	234,6	12,2	51,4
Soya	2 450,0	54,0	2 445,4	54,5	1 338,1	41,1	430,3	22,4	17,6
Kunjut	21,0	0,5	19,2	0,4	7,0	0,3	2,7	0,1	12,9
Yeryong'oq	590,0	13,0	625,6	14,0	608,5	18,7	372,9	19,4	63,2
JAMI:	4538	100	4486,6	100	3253	100	1924,2	100	42,4
Yalpi hosil, t									
Kungaboqar	1440,0	14,8	1451,7	20,5	1275,0	18,0	1615,6	30,5	121,2
Maxsar	383,0	3,9	409,4	5,7	1035,5	14,7	266,6	5,0	69,6
Soya	5 474,0	56,2	2227,49	31,4	2035,41	28,8	2075,79	39,3	37,9
Kunjut	11,0	0,1	12,1	0,2	8,5	0,1	5,2	0,1	47,3
Yeryong'oq	2440	25,0	2995,9	42,2	2710,87	38,4	1330,65	25,1	54,5
JAMI:	9748	100	7096,59	100	7065,28	100	5293,84	100	54,3
Hosildorligi, s/ga									
Kungaboqar	12,4		13,2		15,8		18,8		151,6
Maxsar	8,8		11,2		20,9		11,6		131,8
Soya	18,8		9,3		10,4		36,8		195,7
Kunjut	4,8		6,7		10,7		19,3		4 marta
Yeryong'oq	24,9		22,3		21,3		23,7		95,2

Fermer xo‘jaliklari mahsulot ishlab chiqarishda eng asosiy omil - bozor talabi tendensiyasini hisobga olishi zarur. Talabning dinamikasi (TT - talab tendensiyasi), uning mavsumiyligi va o‘sish sur‘atlari ishlab chiqarish hajmlarini rejalashtirish, investitsiya qarorlarini qabul qilish va eksport-import siyosatini aniqlashga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Agar talab noto‘g‘ri baholansa, ortiqcha ishlab chiqarish yoki bozor tanqisligi yuzaga keladi.

Fermer xo‘jaliklari o‘z mahsulotlarini nafaqat mahalliy bozorda, balki xalqaro bozorlarda ham sotadi. Shunday sharoitda bozordagi raqobat darajasi va uning xususiyatlarini (BR - bozordagi raqobatning holati va xususiyatlari) baholash - narx siyosati, sifatni oshirish va differensiallashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish uchun muhim omil hisoblanadi.

Moyli ekinlar bozorida fermer xo‘jaliklari bir nechta yirik raqobatchilar bilan yuzma-yuz keladi (AR - asosiy raqobatchilar va ularning faoliyat yo‘nalishlari). Ularning ishlab chiqarish hajmi, marketing strategiyalari, innovatsion faoliyati va distribyutsiya tarmog‘ini bilish - fermer xo‘jaliklari uchun raqobatbardosh ustunlik yaratishda muhim hisoblanadi. Raqobatchilarni chuqur o‘rganish ularga bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari (<https://www.stat.uz/uz/>) asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Fermer xo‘jaliklarida mavjud moliyaviy, texnologik va inson resurslari marketing tadqiqotlaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi asosiy ichki omillardir (BRI - kompaniyaning boshqaruv resurslari va imkoniyatlari). Agar xo‘jalik resurslar bilan ta‘minlangan bo‘lsa, u zamonaviy marketing vositalaridan foydalana oladi, bozor ma‘lumotlarini to‘plash va qayta ishlashni samarali tashkil etadi.

Biz tomondan olib borilgan tadqiqotda yuqoridagilarni inobatga olgan holda moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo‘jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini oshirish tadqiq qilingan va ushbu 4 ta indikatorlar (TT, BR, AR, BRI) moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo‘jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun ilmiy asosga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan. O‘rganishlardan kelib chiqib, moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo‘jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini baholash formulasi quyidagicha taklif etiladi (1):

$$MS_t = TT_{\alpha} + BR_{\beta} + AR_{\gamma} + BRI_{\delta} \quad (1)$$

Bunda, TT-talab tendensiyasi; BR-bozordagi raqobatning holati va xususiyatlari; AR-asosiy raqobatchilar va ularning faoliyat yo‘nalishlari; BRI-kompaniyaning boshqaruv resurslari va imkoniyatlari.

Tanlangan mezonlarning har biri fermer xo‘jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlariga turli darajada ta‘sir ko‘rsatadi, degan mulohazaga kelindi va salmoq koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda (2) formula quyidagi tartibda shakllantirildi:

$$MS_t = aTT_{\alpha} + bBR_{\beta} + cAR_{\gamma} + dBRI_{\delta} \quad (2)$$

Bunda,  $0 \leq a, b, c, d \leq 1$  da bo‘lib, ularning yig‘indisi birga teng,  $a+b+c+d=1$ ;

a, b, c, d - salmoq koeffitsiyentlari hisoblanib, marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini baholash uchun tanlangan omillarning qay darajada ta‘sir ko‘rsatishini belgilab beruvchilardir.

Salmoq koeffitsiyentlari o‘rganilayotgan raqobatbardoshlik mezonlari soniga ko‘ra aniqlanadi (K), bunda har bir samaradorlik omillarini baholash uchun tanlangan indikatorlar sonidan kelib chiqib keltirilgan me‘zonlarga asoslangan holda quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

$$K = \alpha + \beta + \gamma + \delta = 8 + 6 + 7 + 11 = 32;$$

$$a = \frac{1}{32} * 8 = 0,25 ; b = \frac{1}{32} * 6 = 0,22 ; c = \frac{1}{32} * 7 = 0,19 ; d = \frac{1}{32} * 11 =$$

0,34;

Ikkinchi formulaga salmoq koeffitsiyentlarini qo‘yib, quyidagi natijaga kelamiz:  $MS_t = 0.25 * TT_{\alpha} + 0.22BR_{\beta} + 0.19AR_{\gamma} + 0.34BRI_{\delta}$  (3)

Taklif etilgan metodlogik yondjashuvga asoslangan holda “Olovuddin Omad” fermer xo‘jaligi uchun 32 ta indikator asosida ekspert baholash amaga oshirildi. Bunda ekspertlarning umumiy o‘rtacha ballari olindi.

“Olovuddin Omad” fermer xo‘jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini barcha indikatorlar asosida baholash natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

**“Olovuddin Omad” fermer xo‘jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini baholash natijalari<sup>13</sup>**

Kod	Indikator (qisqa)	Oʻrtacha ekspertlar bahosi	Yakuniy natija
TT — Talab tendensiyasi (8 ta indikator, w=0,25)			
TT1	Bozor talabi oʻsishi	4.2	TT oʻrtachasi: 3.90 → vaznli hissasi: 0.25 × 3.90 = 0.975
TT2	Qidiruv/veb-trend indeksi	3.9	
TT3	Mavsumiylik kuchi	3.6	
TT4	Narx elastikligi	3.8	
TT5	Xarid chastotasi	4.1	
TT6	Oʻrtacha chek dinamikasi	3.7	
TT7	Segment kengayishi	3.9	
TT8	Qondirilmagan ehtiyoj	4.0	
BR — Bozordagi raqobat holati (7 ta indikator, w=0,22)			
BR1	Faol raqobatchilar soni	3.2	BR oʻrtachasi: 3.457 → vaznli hissasi: 0.22 × 3.457 = 0.761
BR2	Konsentratsiya (HHI)	3.6	
BR3	Kirish toʻsiqlari	3.8	
BR4	Narx raqobati intensivligi	3.1	
BR5	Differensiatsiya darajasi	3.7	
BR6	Almashinuvchi mahsulot tahdidi	3.3	
BR7	Switching cost	3.5	
AR — Asosiy raqobatchilar (6 ta indikator, w=0,19)			
AR1	Yetakchi ulushi nisbati	3.0	AR oʻrtachasi: 3.00 → vaznli hissasi: 0.19 × 3.00 = 0.570
AR2	Yangi mahsulot tezligi	2.9	
AR3	Reklama SOV ustunligi	3.2	
AR4	Distribyutsiya qamrovi farqi	3.1	
AR5	Narx premiyasi	2.8	
AR6	NPS/sadoqat farqi	3.0	
BRI — Boshqaruv resurslari va imkoniyatlari (11 ta indikator, w=0,34)			
BRI1	Likvidlik koeffitsiyenti	4.3	BRI oʻrtachasi: 3.964 → vaznli hissasi: 0.34 × 3.964 = 1.348
BRI2	Investitsiya salohiyati	4.0	
BRI3	R&D intensivligi	3.9	
BRI4	IT yetuklik	4.1	
BRI5	Analitika qobiliyati	3.8	
BRI6	Inson kapitali malakasi	4.2	
BRI7	Kadrlar aylanishi	3.6	
BRI8	Jarayon standartlashuvi	4.0	
BRI9	Taʼminot ishonchliligi (OTIF)	3.7	
BRI10	Brend kapitali skori	3.9	
BRI11	Boshqaruv/KPI yetukligi	4.1	

Shunday qilib, natijaviy funksiya (3) asosida olingan 3,65 ball xo‘jalikda marketing tadqiqotlaridan foydalanish samaradorligi yetarli darajada shakllanganini bildiradi. Ammo raqobatchilar omili va bozor monitoringini takomillashtirish hisobiga bu ko‘rsatkichni 4,2-4,5 ball darajasiga ko‘tarish imkoniyati mavjud.

Moyli ekinlar ishlab chiqaruvchilari va iste‘molchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni kompleks tahlil qilishda marketing tadqiqot jarayonining samaradorligi *ishlab chiqarish hajmi* va *iste‘molchilar qoniqish darajasining o‘sishi* orqali baholash lozim, bu esa imkoniyatni kengaytirish va jarayonlarni to‘liq, mantiqiy, bosqichma-bosqich tavsiflashga asoslanadi.

Bunda tadqiqot jarayonining samaradorligini oshirish bosqichlarini quyidagicha keltirish mumkin:

<sup>13</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

1. *Maqsadni aniqlash*: tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsadni belgilab olish, ya’ni fermer xo‘jaliklari mahsulotlari bozorini o‘rganish, iste’molchilar talabini tushunish va ularning ehtiyojlariga mos mahsulotlarni taklif qilish lozim.

2. *Tadqiqot uslubini tanlash*: tadqiqot maqsadi va mavjud resurslarga qarab mos tadqiqot uslubini tanlash, masalan, so‘rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar yoki marketologlar va tadqiqotchilarning o‘zi ma’lumot yig‘ishi mumkin.

3. *Ma’lumot yig‘ish*: fermer xo‘jaliklari va iste’molchilardan ma’lumot to‘plash (survey, anketa, savolnoma). Bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali ma’lumotlar to‘liqligini ta’minlash mumkin.

4. *Ma’lumotlarni tahlil qilish*: yig‘ilgan ma’lumotlarni statistik va mantiqiy usullar bilan tahlil qilish.

5. *Xulosa va tavsiyalar*: tahlil natijalariga asoslanib xulosalar chiqarish va fermer xo‘jaliklari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, bu esa ishlab chiqarish hajmini (12 %) va iste’molchilar qoniqishini (18 %) oshirishga yordam beradi.

6. *Natijalarni baholash*: tadqiqotdan olingan natijalar asosida ishlab chiqarish hajmi va iste’molchilar qoniqishining o‘zgarishini baholash, bu jarayonning samaradorligini ko‘rsatadi.

7. Bu jarayonlar ushbu samaradorlikka erishishga olib keladi: - *imkoniyatni kengaytirish*: tadqiqot natijasida aniqlangan yangi bozor imkoniyatlari va iste’molchilarning bo‘sh joydagi talablarini to‘ldirish orqali fermer xo‘jaliklari imkoniyatlari kengayadi; - *to‘liq, mantiqiy va bosqichma-bosqich tavsiflash*: ushbu tadqiqot bosqichma-bosqich va mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi, har bir bosqichda ma’lumotlarning to‘liq to‘planib, tahlil qilinishi natijasida jarayonning aniq va to‘liq tavsifi ta’minlanadi; - *ishlab chiqarish hajmi va iste’molchilar qoniqishi darajasi o‘sishi*: tadqiqot orqali iste’molchilarning ehtiyojlarini to‘g‘ri tushunib, mos mahsulotlarni ishlab chiqarish, sifatni oshirish va yangi bozorlarga kirish orqali ishlab chiqarish hajmi va iste’molchilar qoniqishi o‘sadi.

Tadqiqot ishining **“Moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobi moyli ekinlar yetishtiruvchi korxonalar samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan va takliflar tayyorlangan. Respublikada o‘simlik moyi qiymatining prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqilgan.


Moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo‘jaliklari bilan iste’molchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni kompleks tahlil qilish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon sifatida bir qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi va ular *to‘liq, mantiqiy va bosqichma-bosqich* izchillikda aks ettirishi lozim.

1-bosqich. Boshlang‘ich sharoitni aniqlash, 2-bosqich. Talabni o‘rganish, 3-bosqich. Taklifni shakllanish manbalarini aniqlash, 4-bosqich. O‘zaro ta’sir mexanizmlarini belgilash, 5-bosqich. Munosabatlarni boshqarish, 6-bosqich. Samaradorlikni baholash.

Samaradorlik 3 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha aniqlanishi lozim. Bunda quyidagi yo‘nalishlar tanlanishi kerak: 1. *Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari*, 2. *Ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlari*, 3. *Ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari*.

Moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo‘jaliklari bilan iste‘molchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni samarali yo‘lga qo‘yish jarayonining yakuniy bosqichi – bu takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilashdir. Ushbu bosqich, avvalo, olib borilgan tahlillar va amaliy natijalar asosida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

SADT modeli - bu tizimli tahlilning qudratli usuli bo‘lib, u fermer xo‘jaliklari, sanoat korxonalari yoki xizmat ko‘rsatish sohalaridagi jarayonlarni *to‘liq, mantiqiy va bosqichma-bosqich* tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu model tizimli tahlil metodologiyasiga tayanadi va jarayonlarni “*kirish – nazorat – mexanizm – chiqish*” (input–control–mechanism–output) asosida bosqichma-bosqich ifodalash imkonini beradi (1-rasm).



**1-rasm. Moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo‘jaliklari va iste‘molchilar o‘rtasidagi munosabatlarni kompleks tahlil qilishning sadt modeli<sup>14</sup>**

Taklif etilgan modelda: - *kirish (input)*: fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish resurslari, iste‘molchilar ehtiyoj va talablari, bozor muhiti haqidagi axborotlar kiritiladi; - *nazorat (control)*: davlat siyosatlari, agrar strategiyalar va huquqiy me‘yorlar, sifat hamda ekologik talablar jarayon samaradorligini boshqaradi; - *mexanizm (mechanism)*: fermer xo‘jaliklari, agrotexnika vositalari, marketing va savdo kanallari, shuningdek tadqiqot institutlari asosiy harakatlantiruvchi omil sifatida belgilangan; - *chiqish (output)*: ishlab chiqarish hajmining o‘shishi, iste‘molchilar qoniqish darajasining oshishi hamda bozor barqarorligi va eksport salohiyati ko‘rinishida ifoda etilgan.

<sup>14</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Jarayon a1–a7 bosqichlari orqali izchil ravishda amalga oshiriladigan bosqichlar keltirilgan. Mazkur bosqichlar boshlang'ich sharoitni aniqlashdan tortib, talab va taklifni shakllantirish, o'zaro ta'sir va boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish, samaradorlikni baholash va yakunda takomillashtirishga qadar. Shu bilan birga, modelda "qayta aloqa" elementi orqali natijalar tahlili asosida tizimni qayta ko'rib chiqish va doimiy ravishda rivojlantirish imkoniyati nazarda tutilgan.

Umuman, shakllantirilgan SADT modeli fermer-iste'molchi munosabatlarini kompleks tahlil qilishda tizimli yondashuv, ilmiy asoslangan tartib va samaradorlikka e'tiborni ta'minlab mantiqiy metodologik asos sifatida qabul qilishga imkon beradi. SADT modeliga idf0 bloklari orqali ko'rsatiladi. Har bir bosqich (a1–a7) kirish, nazorat, mexanizm va chiqish elementlari bilan tushuntiriladi. Bu esa jarayonlarni nafaqat nazariy, balki amaliy boshqaruv tizimi sifatida ham ifodalash imkonini beradi. Fermer xo'jaliklarini SADT modelida har bir jarayon kirish (input), nazorat (control), mexanizm (mechanism) va chiqish (output) elementlari orqali ifodalanishi uchun obyekt sifatida tanlangan "Boybo'ta" hamda "Olovuddin Omad" fermer xo'jaliklari mahsulot turlari bo'yicha sanoqdan o'tkazilgan.

"Boybo'ta" hamda "Olovuddin Omad" fermer xo'jaliklari o'zlarining mahsulot yetishtirishi va bozorda samarali faoliyat yuritishi uchun kiruvchi omillar hisoblangan fermer resurslari va iste'molchilar talablari hamda chiquvchi resurslar sifatida ishlab chiqarish hajmi o'sishi va qoniqish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirishi lozim. Bunday holda jarayonning samaradorligi funksiyasi (S) quyidagi ikki ko'rsatkichning birlashtirilgan ifodasi sifatida yoziladi:

$$S = f(X_n)$$

Bu yerda,

$X_n$  – kiruvchi, chiquvchi, jarayon va nazarat omillar.

Samaradorlikni ikki ko'rsatkich asosida o'rtacha integral funksiya sifatida quyidagicha berish mumkin:

$$S = \sum_i X_n$$

Bu yerda,

$\alpha, \beta$  – oraliq koeffitsiyentlar hisoblanadi.

"Boybo'ta" hamda "Olovuddin Omad" fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tanlanadi. *Kiruvchi (Input)*: Frs - fermer resurslaridan foydalanish samaradorligi (%); Iqd - iste'molchilar talabi darajasi (mintaqaviy/korxona bo'yicha, t). *Nazorat (Control)*: Dpn - davlat siyosati va normativlarga muvofiqlik (1–5); Ses - sifat va ekologik standartlar (%). *Mexanizm (Mechanism)*: Q - ishlab chiqarish hajmi (t. yoki ming t.); Ichh - ishlab chiqarish hajmi o'sishi (%); Msc - marketing va savdo kanallari samaradorligi (1–5); Itf - innovatsiya va tadqiqotlardan foydalanish (%). *Chiquvchi (Output)*: Iqi – iste'molchilar qoniqish indeksi (%); Ebb – bozor barqarorligi va eksport salohiyati (ming \$).

"Boybo'ta" fermer xo'jaligining 2020-2024-yillar uchun SADT modeli asosida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini aniqlash uchun 6-

jadval ma'lumotlaridan foydalaniladi. Fermer resurslaridan foydalanish samaradorligi (Frs). Bu ko'rsatkich fermer xo'jaliklari o'zlarida mavjud ishlab chiqarish resurslaridan - yer, mehnat, suv, texnika, moliyaviy mablag'lar - qay darajada samarali foydalanayotganini ko'rsatadi. Frs (%) - fermer resurslaridan foydalanish samaradorligi deganda, cheklangan resurslardan olinayotgan natijaning (mahsulot hajmi, qo'shilgan qiymat) maksimal darajada ta'minlanishi tushuniladi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, fermer xo'jaligi o'z resurslarini shunchalik oqilona ishlatayotganini bildiradi.

## 6-jadval

### “Boybo‘ta” fermer xo‘jaligining marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini aniqlash uchun tanlangan indikatorlar bo‘yicha ma‘lumotlar <sup>15</sup>

Yil	Frs (%)	Iqd (ming t)	Dpn (1–5)	Ses (%)	Ichh (%)	Msc (1–5)	Itf (%)	Iqi (%)	Ebb (ming \$)
2020	65	12.5	3	40	4.2	2	15	55	120
2021	68	13.0	3	45	4.5	3	20	58	135
2022	72	14.2	4	50	5.0	3	24	63	160
2023	75	15.0	4	55	5.8	4	28	68	185
2024	78	16.3	5	62	6.5	4	32	73	210

“Boybo‘ta” fermer xo‘jaligi uchun 2020-2024-yillardagi jadval ma'lumotlariga tayangan holda Cobb-Douglas funksiyasi asosida SADT guruhlarini saqlagan holda xo'jalikning marketing tadqiqot jarayonining samaradorligi Log-chiziqli ko'rinishda ifodalanishi lozim. Sababi iqtisodiy ko'rsatkichlar turlicha bo'lib, ularni normallashtirilgan qiymatlar asosida samaradorlikni baholash talab etiladi. Bunda quyidagi funksiyalardan foydalaniladi.

$$\ln(s) = \ln(a) + \sum_{i=1}^I \beta_i \ln(\hat{x}_i), \quad S = a \prod_{i=1}^I \hat{x}_i^{\beta_i}$$

Bu yerda,  $X_i$  – ko'rsatkichlarning [0;1] oralig'iga keltirilgan indeksleri (min–max asosida),  $A=1$ . Nolga tushib qolmasligi uchun min qiymatlar 0,05 ga yaqinlashtiriladi.  $B$  – vazn koeffitsiyentlari ( $\sum \beta = 1$ )

Cobb-Douglas funksiyasi asosida “Boybo‘ta” fermer xo‘jaligi uchun 2020-2024-yillardagi jadval ma'lumotlariga asoslanib, «excel-solver» dasturil asosida  $\ln(s)$  yig'indiga  $\beta * \ln(x_n)$  to'plam uchun har bir omilning ulushi quyidagicha hisoblangan: Input:  $\beta(\text{frs})=0,12$ ;  $\beta(\text{iqd})=0,18$ ; Control:  $\beta(\text{dpn})=0,08$ ;  $\beta(\text{ses})=0,10$ ; Mechanism:  $\beta(\text{ichh})=0,12$ ,  $\beta(\text{msc})=0,10$ ;  $\beta(\text{itf})=0,12$ ; Output:  $\beta(\text{iqi})=0,12$ ;  $\beta(\text{ebb})=0,06$ .

Indeks 2024-yilga nisbatan bazis=100 qilib ko'rsatilgan holda “Boybo‘ta” fermer xo‘jaligi uchun marketing tadqiqot jarayonining samaradorligi indeks 7-jadvalda keltirilgan.

Boshqaruv xulosalari (SADT guruhleri kesimida). Olib borilgan tadqiqotlar Input (Frs, Iqd): talab (Iqd)  $S$  ga eng katta doimiy hissa qo'shmoqda; resurs samaradorligi (Frs) o'sishda, biroq qo'shimcha agronomik va suv/yer boshqaruvi orqali zahira bor.

<sup>15</sup> “Boybo‘ta” fermer xo‘jaligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



*Control* (Dpn, Ses): me'yoriy muhit va sertifikatlash (Ses)  $S$  ni barqarorligini ta'minlaydi; eksportni ko'paytirish uchun Sesni 62%  $\rightarrow$  70%+ diapazonga ko'tarish maqsadga muvofiq bo'ladi. *Mechanism* (Q/ichh, Msc, Itf): ishlab chiqarish o'sishi (Ichh=0,12) va innovatsiya (Itf) sinergiyasi sezilarli; Msc yuqori nuqtaga yetgani uchun keyingi bosqichda kanallarni diversifikatsiya + brend qiymatini oshirish talab etiladi.

## 7-jadval

### Moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari bilan iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kompleks tahlil qilishda marketing tadqiqot jarayonining samaradorlik indeksi<sup>16</sup>

Yil	S (indeks, 2024=100)
2020	5.0
2021	21.6
2022	48.9
2023	73.0
2024	100.0

*Output* (Iqi, Ebb): qoniqish (Iqi) va eksport salohiyati (Ebb)  $S$  ni "lock-in" qiladi; Iqi ni 73%  $\rightarrow$  80% ga ko'tarish Ebb ni ham kuchaytiradi (brending va sifat kafolatlari orqali).

Cobb-Douglas modeli ko'rsatdiki, 2020–2024-yillarda  $S$  samaradorlik indeksi 5 $\rightarrow$ 100 ga ko'tarilgan; asosiy drayverlar - talab (Iqd), me'yoriy muhit (Dpn) va ishlab chiqarish o'sishi (Ichh). Keyingi bosqichda Ses va Iqi ni oshirish, Itf ni kuchaytirish hamda Mscni sifat jihatdan yangilash (kanal diversifikatsiyasi va brend kuchayishi)  $S$  ni yuqori platformaga olib chiqadi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida SADT metodologiyasi asosida moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaligi va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlar tizimli tarzda modellashirildi hamda Cobb-Douglas shaklidagi integral samaradorlik funksiyasi orqali baholandi. Modeldagi elastiklik koeffitsiyentlari ( $\beta$ /beta $\beta$ ) omillarning nisbiy ta'sir kuchini ifodalaydi: omil 1 % ga o'zgarganda, boshqa shartlar o'zgarmagan holda, umumiy samaradorlik indeksi  $S$  taxminan  $\beta$  %ga o'zgaradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, iste'molchilar talabi darajasi (Iqd) uchun belgilangan  $\beta_{IQD} = 0,18$  qiymati  $S$  ni eng yuqori elastik ta'sir etuvchi omillardan biri ekanini ko'rsatdi. Bundan quyidagi xulosa chiqarish mumkin: Talab-bosh harakatlantiruvchi kuch. Ichki bozorda moyli mahsulotlarga talab 1 % oshsa, umumiy samaradorlik o'rtacha 18 % ga o'sadi. Demak, bozorni segmentlash, sifat/narx bo'yicha pozitsiyalash va distributsiyani kengaytirish kabi marketing choralari to'g'ridan-to'g'ri va sezilarli samara beradi. Qayta aloqa (feedback) kanali. Talabning o'sishi fermer-iste'molchi o'rtasidagi aloqalarni faollashtiradi: sotuv kanallari (Msc) yaxshilanadi, qoniqish (Iqi) oshadi, natijada eksport salohiyati (Ebb) kuchayadi. Shu bois Iqd nafaqat "kirish", balki butun zanjirda drayver vazifasini bajaradi.

Ikkinchi muhim natija - ishlab chiqarish hajmi o'sishi (Ichh) uchun belgilangan  $\beta_{ICHH} = 0,18$  elastiklik koeffitsiyentidir. Bu qiymat ishlab chiqarish dinamikasining bevosita ta'sirini anglatadi: dinamik samara. Ishlab chiqarish o'sishi

<sup>16</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.



1 % ga tezlashsa,  $S$  o'rtacha 12 % ga o'sadi. Demak, agrotexnik tadbirlar, intensiv texnologiyalar va resurs boshqaruvi (Frs) orqali barqaror o'sish trayektoriyasini saqlash strategik ahamiyatga ega. Sifat bilan birgalikda ishlab chiqarish ham o'sishi Ses (sifat/ekologik standartlar) va Itf (innovatsiya) bilan uyg'unlashganda, uning umumiy ta'siri keskin kuchayadi; aks holda, hajmdagi o'sish Iqi va Ebb orqali to'liq kapitallashmaydi.

SADT guruhlarini kesimida olingan natijalar asosida quyidagi muhim natijalarga erishiladi: *Input* (Frs, Iqd). Iqd ning yuqori elastikligi fermerlar uchun "talabga yo'naltirilgan" ishlab chiqarishni strategik ustuvor qilib qo'yadi. Frs (resurs samaradorligi) barqaror o'sishni ta'minlashda, uning ta'siri Iqd kabi kuchli emas; shunga qaramay, agroresurs boshqaruvini yaxshilash talab o'sishiga tez javob qaytarish imkonini oshiradi; *Control* (Dpn, Ses). Institutsional muhit va standartlar talab-taklif uyg'unligini mustahkamlaydi. Sifat/ekologiya talablari bajarilishi Iqi va Ebb ni oshirib,  $S$  ni barqaror qiladi; *Mechanism* (Q/Ichh, Msc, Itf). Ishlab chiqarish hajmi va uning o'sishi  $S$  uchun asosiy "dvigatel"; Msc (kanallar) ma'lum bosqichda to'yinishga yetishi mumkin, shu paytda Itf (innovatsiya) yangi o'sish manbalarini ochadi; *Output* (iqi, ebb). Iqi ning yaxshilanishi ichki bozor "qulflavchi" ta'sirga ega, Ebb esa tashqi bozorga chiqishda natijaga aylanadi. Ushbu ikki ko'rsatkich yuqori bo'lmas ekan, iqd va ichhdan kelgan ijobiy impulslar to'liq namoyon bo'lmaydi.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, moyli ekinlar zanjirida samaradorlikni tez va barqaror oshirishning ikki ustuni - talabni faol boshqarish ( $\beta_{IQT} = 0,18$ ) hisoblanadi va ishlab chiqarish o'sishini ta'minlashdir ( $\beta_{IchH} = 0,12$ ). Ushbu ikki omilning institutsional (Dpn), sifat (Ses) va innovatsion (Itf) tayanchlar bilan uyg'un rivojlantirilishi fermer-iste'molchi munosabatlarini bozor barqarorligi va eksport salohiyatiga aylantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida, «Olovuddin omad» fermer xo'jaligining SWOT tahlilini keltiramiz (8-jadval).

8-jadval

**«Olovuddin Omad» fermer xo'jaligining SWOT tahlili<sup>17</sup>**

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Toshkent viloyati bozorida mashhurligi, yaxshi brend;</li> <li>- mustahkam iqtisodiy holati;</li> <li>- yirik sarmoyalar shu jumladan reklama budjeti;</li> <li>- zamonaviy jihozlar;</li> <li>- innovatsiyalarni faol tatbiq etish;</li> <li>- reklamaning muntazamligi;</li> <li>- ishlab chiqarish quvvatlari.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- assortiment kengligi yetishmasligi;</li> <li>- reklama yaratishda o'zining kreativ g'oyalarining yo'qligi;</li> <li>- xalqaro bozorga chiqishning mavjud emasligi.</li> </ul>
Imkoniyatlari	Xavf-xatarlari
<ul style="list-style-type: none"> <li>- assortimentni kengaytirish;</li> <li>- innovatsiyalardan foydalanish;</li> <li>- ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish.</li> </ul>	<p>Fermer xo'jaligi foydalanayotgan bozor segmentida raqobat kuchayib borishi.</p>

Moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarining SWOT tahlili bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: aksariyat moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari katta hajmda raqobatbardosh emas, sifatli mahsulot ishlab

<sup>17</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

chiqarish imkonini beruvchi urug' bilan ta'minlanmagan. Mahalliy urug' asosida mahsulot yetishtirish keng qo'llaniladi; bozordagi barcha yetakchi ishtirokchilar keng va yirik assortimentga egaligi sababli, mahsulot turlarining maqsadli marketing tadqiqotlarini o'tkazishni qiyinlashtiradi; ko'rib chiqilgan yog'-moy korxonalarining hammasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksport ham yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Eksport odatda MDH doirasiga kiruvchi mamlakatlar bilan cheklangan; barcha korxonalar uchun bir xildagi xavf xatarlar xosdir - xom-ashyo ta'minotiga bog'liqlik, import xom-ashyoga bo'lgan soliq bojlarining yuqoriligi, xom-ashyoning doimiy o'sib borishi, mamlakatda inflyatsiyaning o'sishi.

Bizning fikrimizcha, oziq-ovqat tovarlari bozorini sifatli, xaridorgir yog'-moy mahsulotlari bilan to'ldirishda korxonalar iste'molchilarning afzalliklarini kuzatishlari va raqobat muhiti hamda raqobatchilari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

Respublikada o'simlik moyi tarmog'ini rivojlantirish istiqbollari baholashda tahlil asosan vaqtli qatorlar ko'rinishidagi ma'lumotlar asosida olib boriladi. Ko'p omilli ekonometrik modelda ishtirok etuvchi omillarning o'lchov birliklari turli bo'lgani uchun biz ularni yagona o'lchov birligiga keltirishda barcha omillarning qiymatlarini logariflashni maqsadga muvofiq, deb bildik. Bunda natijaviy omil bo'lib, o'simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarish qiymati  $\ln Y$  (mln. so'm), ta'sir etuvchi omillar sifatida esa - o'simlik moyi mahsulotlari savdosi  $\ln X_1$  (mln. so'm), o'simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarishning miqdoriy hajmi  $\ln X_2$  (ming t.), o'simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni  $\ln X_3$  (birlik), o'simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqaruvi korxonalarda xodimlar soni  $\ln X_4$  (nafar), o'simlik moyi sanoatiga ajratilgan investitsiyalar  $\ln X_5$  (mln. so'm) qabul qilindi.

Respublikada o'simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarish va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzishdan avval omillar bo'yicha tavsifiy statistik hisob ishlari o'tkazildi (9-jadval).

## 9-jadval

### O'simlik moyi mahsuloti ishlab chiqarish va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tavsifiy statistik hisob natijalari<sup>18</sup>

	LN Y	LN X1	LN X2	LN X3	LN X4	LN X5
Mean	12.73772	14.32821	10.69554	8.241892	9.801440	12.67256
Median	12.61442	14.14635	10.53929	8.104979	9.798876	12.74693
Maximum	14.36163	16.11586	11.86920	9.143880	10.34268	15.65993
Minimum	11.12571	13.20329	9.422585	7.758333	9.310819	9.835048
Std. Dev.	1.188844	0.902270	0.849553	0.380626	0.274967	1.807885
Skewness	0.097023	0.498852	0.134691	0.995506	0.340699	0.105068
Kurtosis	1.528004	1.993477	1.641342	3.085944	3.796745	1.877074
Jarque-Bera	8.020723	10.841127	4.758642	6.640554	10.463480	11.196360
Probability	0.004087	0.000294	0.005065	0.001981	0.007931	0.0004981
Sum	280.2299	315.2207	235.3018	181.3216	215.6317	278.7962
Sum Sq. Dev.	29.68036	17.09591	15.15654	3.042406	1.587744	68.63739
Observations	22	22	22	22	22	22

Bunda, har bir omilning o'rtacha qiymati (*mean*), medianasi (*median*), maksimal va minimal qiymatlari (*maximum*, *minimum*), shuningdek har bir omilning

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

standart chetlanishi (*std. dev.*) qiymatlari keltirilgan. *Skewness* – asimmetriya koeffitsienti bo‘lib, u nolga teng bo‘lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi.

Agar bu koeffitsient 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya’ni, simmetrik emas). Agar asimmetriya koeffitsienti 0 dan katta, ya’ni musbat bo‘lsa, u holda o‘rganilayotgan omil bo‘yicha normal taqsimot grafigi o‘ng tomonga surilgan bo‘ladi. 0 dan kichik, ya’ni manfiy bo‘lsa, u o‘rganilayotgan omil bo‘yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo‘ladi. Hisob-kitoblari natijasida respublikada o‘simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarishning ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan o‘zgaruvchilarining prognoz davridagi qiymatlariga ega bo‘lamiz (10-jadval).

#### 10- jadval

#### Respublikada o‘simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarish va unga ta’sir etuvchi omillarning 2030-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari<sup>19</sup>

Yil-lar	O‘simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarish, mln. so‘m, Y	O‘simlik moyi mahsulotlari savdosi, mln. so‘m, X1	O‘simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarish, t., X2	O‘simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni, birlik, X3	O‘simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda xodimlar soni, nafar, X4	Ajratilgan investitsiyalar, mln. so‘m, X5
2025	<b>4650140.7</b>	12015403.4	<b>478320.7</b>	7496	32193	17595786.0
2026	<b>5568999.6</b>	13767206.8	<b>506654.9</b>	7856	33502	23202254.3
2027	<b>6669423.2</b>	15774416.9	<b>534367.6</b>	8233	34865	30595087.0
2028	<b>7987288.5</b>	18074271.1	<b>562261.7</b>	8628	36283	40343465.7
2029	<b>8587486.6</b>	19274263.4	<b>582254.3</b>	8824	38265	49345444.2
2030	<b>9187386.2</b>	19972261.8	<b>599263.5</b>	9122	40264	58343882.5

11-jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, Respublikamizda o‘simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga ortib bormoqda, ya’ni o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Buning asosiy sababi o‘simlik moyi mahsulotlari bozorining tez sur’atlarda kengayishi, mamlakatimizdan o‘simlik moyi mahsulotlari eksport qilish geografiyasining ortib borishi bilan xarakterlanadi. Hisob-kitob qilingan prognozlarga ko‘ra 2030 yilda respublikamizda o‘simlik moyi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2023 yilga nisbatan 1,39 barobarga ortishi kutilmoqda. Bu esa o‘z navbatida moyli ekinlar yetishtiruvchi korxonalarga investitsiyalarni ko‘proq jalb qilish va ulardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda o‘simlik moyi mahsulotlarining hajmini oshirish uchun korxonalar sonini oshirish, malakali mutaxassislarni ishlab chiqarishga jalb qilish, yangi texnologiyalardan foydalanish, sotish bozorlari geografiyasini kengaytirish lozim.

<sup>19</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

## **XULOSA**

Moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Marketing tadqiqotlari tushunchasiga quyidagi mualliflik yondashuvi shakllantirildi: "Marketing tadqiqotlari - bu bozor kon'yunkturasi: narxlar, raqobatchilar, foydalanuvchilar va boshqalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tasniflash va tahlil qilish. Marketing tadqiqotlari - bu bozor, mahsulot yoki xizmat haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va sharhlash uchun vositalar to'plamidir". "Marketing tadqiqotlari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bozor ishtirokchilarining (ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, vositachi) talab va ehtiyojlarini aniqlash, mahsulotlar va xizmatlarning raqobatbardoshligi, bozor sig'imi va tendensiyalarini baholash, marketing qarorlari va strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ishonchli, obyektiv hamda tizimli ravishda yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan nazariy-amaliy tadbirlar majmuasi nuqtai nazaridan takomillashtirildi.

2. Boshqaruv qarorini qabul qilishda marketing tadqiqotlari tipologiyasi, tashkiliy shakllari, turlarini hamda xalqaro va milliy normativ hujjatlar va ularning mazmunini bilish muhim ahamiyatga ega. Bunda buyurtmachi tomonidan mustaqil tadqiqot o'tkazish va uchinchi tomon tashkilotlarining tadqiqotlar o'tkazishi kabi shakllarni kiritish marketing tadqiqotlarining tashkiliy shakllarini takomillashtirish imkonini beradi. Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda natijalarni asoslash tizimi bo'yicha hamda chastotasi bo'yicha turlarga ajratib o'rganish muhim hisoblanadi.

3. Moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarida marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonlari samaradorligini oshirishda talab tendensiyasi, bozordagi raqobatning holati va xususiyatlari, asosiy raqobatchilar va ularning faoliyat yo'nalishlari, korxonaning boshqaruv resurslari va imkoniyatlari omillari tadqiq qilindi va maqbul me'yoriy chegaralari ilmiy asoslandi;

4. Moyli ekinlar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari bilan iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kompleks tahlil qilishda marketing tadqiqot jarayonining samaradorligi ishlab chiqarish hajmi hamda iste'molchilarning qoniqish darajasining o'sishi orqali ifodalanuvchi imkoniyatini kengaytirish hamda jarayonlarning to'liq, mantiqiy va bosqichma-bosqich tavsifini ta'minlash ilmiy asoslandi.

5. Marketing tadqiqotlari usullarini tahlil qilish muhim masalalardan hisoblanib, moyli ekinlarni samaradorligini oshirishda PEST va SWOT tahlili usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir hamda marketing tadqiqotlarini o'tkazishni ma'lum bir ketma-ket bosqichlarda amalga oshirish talab etiladi.

6. Moyli ekinlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari va iste'molchilar o'rtasidagi aloqani batafsil tahlil qilish va jarayonning to'liq tavsifini olish

imkonini beruvchi marketing tadqiqot jarayonining SADT modelini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

7. O'simlik moyi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va savdosi, ishlab chiqaruvchi korxonalar va ularda band bo'lgan xodimlar soni, o'simlik moyi sanoatiga ajratilgan investitsiyalar omillarining ta'sirini hisobga olgan holda O'zbekistonda o'simlik moyi mahsulotlari qiymatining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ВАЛИЕВА АЗИЗА АНВАР КИЗИ**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В  
ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ, ВЫРАЩИВАЮЩИХ МАСЛИЧНЫЕ  
КУЛЬТУРЫ**

**08.00.11 – Маркетинг  
08.00. 04 – Экономика сельского хозяйства**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**город Ташкент – 2025 год**



Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией (регистрационный номер B2021.3.PhD/Iqt1821).

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Эргашходжаева Шахноза Джасуровна  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Акрамов Тохир Абдурахмонович  
доктор экономических наук, профессор  
Менгликулов Бахтиёр Юсупович  
доктор экономических наук, профессор


**Ведущая организация:** Ташкентский государственный аграрный университет


Защита диссертации состоится «03» 10 2025 г. в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2020.I.16.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-01-49; Факс: (99871) 239-41-23; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный № 154 (Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-75; Факс: (99871) 239-28-75; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)).

Автореферат диссертации разослан «11» 09 2025 года.  
(протокол реестра № 46 от «10» 09 2025 года).



  
**Г.К. Абдурахманова**  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней  
д.э.н., профессор

  
**О.Дж. Джурабоев**  
Ученый секретарь научного  
совета по присуждению ученых  
степеней, д.э.н., доцент

  
**Ш.А. Аллаев**  
Председатель научного семинара  
при научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор





## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире масложировая отрасль играет важную роль в решении ключевых стратегических вопросов при обеспечении экономического роста стран. Резкий рост спроса на масложировую продукцию происходит в условиях, с одной стороны, эффективного использования имеющихся ресурсов, а с другой — обеспечения эффективности и конкурентоспособности производства за счет инновационных технологий. Так, в условиях современной глобализации «...объем продукции пищевой промышленности во всем мире составляет 4 трлн. долл. США в год. Пищевая промышленность в последние годы развивается быстрыми темпами в связи с ростом спроса на продукты питания. Доминирующее положение в пищевой промышленности занимают США и страны Европейского Союза»<sup>20</sup>. В дальнейшем развитии пищевой промышленности большое значение имеет использование маркетинговых исследований в фермерских хозяйствах, производящих масличные культуры, которые считаются важным продовольственным сырьем.

В настоящее время в мире особое внимание уделяется проведению научных исследований по развитию масложировой промышленности и использованию маркетинговых исследований в этой сфере. Совершенствование методов прогнозирования динамики товарного рынка и потребительского спроса; научное обоснование механизмов обеспечения устойчивых отношений между производителями и потребителями; разработка методов выявления и сегментации потребностей потребителей с использованием технологий цифрового маркетинга; научное совершенствование стратегий брендинга и повышения рыночной конкурентоспособности масличных культур; оценка перспектив выхода растительной масложировой продукции на международные рынки на основе результатов маркетинговых исследований, создание научно обоснованных механизмов моделирования этих процессов входят в число приоритетных направлений научных исследований по эффективному использованию маркетинговых исследований в фермерских хозяйствах, выращивающих масличные культуры.

В Узбекистане особое внимание уделяется насыщению рынка различными товарами, в том числе масложировой продукцией, использованию маркетинговых исследований при создании широких возможностей для приобретения качественных товаров потребителями, разработке маркетинговых стратегий и в конечном итоге обеспечению благосостояния населения. «Учитывая текущие резкие колебания глобальных рыночных цен руководителям уполномоченных ведомств и регионов поручено принять дополнительные меры по поддержанию стабильности цен на внутреннем рынке, и прежде всего, по обеспечению населения достаточным количеством продовольствия»<sup>21</sup>. Поэтому одним из актуальных задач в условиях развития экономики является использование

---

<sup>20</sup> <https://www.oborudunion.ru/largest/pischevoe-oborudovanie>

<sup>21</sup> <https://review.uz/oz/post/opredelen-zadachi-po-narashivaniyu-investiciy-i-eksporta-nassheniyu-prodovolstvennogo-rnka>

маркетинговых исследований в фермерских хозяйствах, выращивающих масличные культуры. Актуальность темы исследования определяется устойчивым обеспечением потребностей населения нашей страны в растительной масложировой продукции, наполнением внутреннего потребительского рынка масложировой продукцией местного производства, совершенствованием использования маркетинговых исследований для более полного удовлетворения спроса потребителей на качественную растительную масложировую продукцию.

Настоящее диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 14 февраля 2025 года № УП-22 «О дополнительных мерах по внедрению современной организационной системы и финансовой поддержке деятельности владельцев приусадебных земель и дехканских хозяйств», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 23 октября 2019 года № УП-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», постановлениях Президента Республики Узбекистан от 7 июля 2023 года №ПП-216 «О дополнительных мерах по повышению качества и эффективности путем интеграции науки, образования и производства в аграрной сфере», от 22 декабря 2021 года № ПП-58 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы исследования реформ, стратегического планирования и управления в сфере продовольствия и сельского хозяйства», от 9 сентября 2020 года №ПП-4821 «О мерах по ускоренному развитию пищевой промышленности республики и полноценному обеспечению населения качественной продовольственной продукцией», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 14 июля 2025 года №438 «О дополнительных мерах по развитию выращивания масличных культур в республике» и других нормативно-правовых актах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное, культурно-образовательное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Научно-теоретические и методологические аспекты использования маркетинговых исследований изучались в научных трудах многих ученых экономистов. Среди зарубежных ученых экономистов Ф.Котлер, Ж.Армстронг, Кевин Лейн Келлер, Ж.Ж.Ламбен, Нэреш К.Малхотра, Д.Кревенс, Ж.Ландвери, Ж.Леви, Д.Линдон, Т.Левитт, Майкл, Дж.Бейкер, Аакер, Дж.Эванс, Б.Берман, Д.Роса, О.Л.Руа, Э.Э.Уонах, С.У.Соне, Р.Абдул. Мажид, К.В.Срирам, П.Верма, С.А.Харма, М.Портер, Иконен, Иина-Маижа Ханнел, Ятинг Тиан, Х.Ю, Б.Хоппинг, Э.Л.Ратлифф<sup>22</sup>, среди учёных из

---

<sup>22</sup> Котлер Ф. Маркетинг 5.0. Технологии следующего поколения / Филип Котлер, Сетиаван Айвен, Картаджайа Хермаван ; [перевод с английского А. Горман]. - Москва: Эксмо, 2023. -272 с.; Kotler P., Armstrong G., Marc Oliver Opresnik. Principles of marketing. Pearson Education Limited 2018; Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing management. - 14th ed. publishing as Prentice Hall, New Jersey, 2012. - 828 p.; Нэреш К.Малхотра. Маркетинговые исследования: практическое руководство. -М.: Вильямс, 2016. -1156 с.; Девид

стран Содружества Независимых Государств С.Г.Божук, Л.Н.Ковалик, И.К.Белявский, А.В.Куликова, Д.Е.Климанов, А.В.Коротков, Н.Б.Сафронова, О.В.Пашкина, С.В.Полевода, Н.П.Шалыгина, Е.Тянь, Л.В.Крылова, К.С.Иорина<sup>23</sup> и другие проводили научные исследования.

В Узбекистане важные аспекты маркетинговых исследований изучались в научно-исследовательских работах таких ученых, как А.Ш.Бекмуродов, М.А.Икрамов, М.Р.Болтабаев, Ш.Ж.Эргашходжаева, А.Н.Самадов, М.А.Юсупов, И.Иватов, А.А.Фаттахов, А.Солиев, Л.Т.Абдухалилова, Б.Н.Мамаев, Т.А.Мамаджанова, Ф.Т.Касимова, Ш.Х.Хамдамов, Х.Хакимов, С.А.Эшматов, Н.Н.Расулов, М.М.Азларова<sup>24</sup> и другие.

---

